

**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIDA SUD HUJJATLARINI TAFTISH  
TARTIBIDA QAYTA KO'RISH BO'YICHA ISH YURITISH**

**Aytimova Barshinay Mu'barrek qizi**  
**Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**  
**Yuridika fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi**  
**barshinay16a@gmail.com**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20373488>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqida 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirgan taftish instansiyasi instituti kompleks tadqiq etiladi. Muallif taftish instansiyasining huquqiy tabiati, uning apellyatsiya va kassatsiyadan farqli xususiyatlari, shikoyat berish tartibi, muddatlari va sud vakolatlari masalalarini tahlil qiladi. Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi taftish instansiyasi tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, O'zbekistonda instituni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** taftish instansiyasi, fuqarolik ishi, sud hujjati, shikoyat, kassatsiya, apellyatsiya, Oliy sud, huquqiy islohot.

**Kirish.** Demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida adolatli sudlovning sifati va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning bosh maqsadi - fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, shuningdek tadbirkorlik subyektlari va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan iborat. Bu jarayon ishlarni qonuniy, asosli va o'z vaqtida hal etish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni, fuqarolar o'rtasida tinchlikni va sudga nisbatan hurmat-e'tiborni shakllantirish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining yangi bosqichida sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshirishning tubdan yangi mexanizmi - taftish instansiyasining joriy etilishi sud tizimining ochiq-oydinligini ta'minlashdagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. 2023-yil 25-dekabrda 887-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilib, 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirgan ushbu yangilik fuqarolik protsessual huquqi sohasida ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etmoqda.<sup>1</sup> Muammo dolzarbligi shundaki, yangi taftish instituti amalda qo'llanilishida bir qator huquqiy muammolar, qonunchilikdagi bo'shliqlar va instansiyalar o'rtasidagi chegaralar aniqligini talab etuvchi masalalar mavjud bo'lib, ularning ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinishi zarur. Ushbu maqolaning maqsadi taftish instansiyasida sud ishlarini yuritishning huquqiy asoslarini, shikoyat berish tartibini va sud vakolatlari kompleks tadqiq etish, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazish, hamda instituni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimidagi so'nggi islohotlar, xususan 887-sonli Qonun asosida adolatli sudlovni amalga oshirishning tubdan yangi va mustaqil bosqichi taftish instansiyasi joriy etildi. Yuridik fan nuqtai nazaridan, taftish instansiyasi - bu apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini yuqori turuvchi sud tomonidan qayta tekshirishni ta'minlovchi mustaqil protsessual bosqich bo'lib hisoblanadi. Ushbu instansiyaning asosiy maqsadi: quyidagilarda

<sup>1</sup> «Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» 887-sonli ÓRN // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-6708694>

tomonidan yo'l qo'yilgan moddiy va protsessual huquq normalarining buzilishini bartaraf etish, sud amaliyotining bir xilligini ta'minlash, fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashni kafolatlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-iyundagi 20-sonli qarorida ta'kidlanganidek, taftish tartibi - nizo bo'yicha qarorni qayta ko'rish emas, balki huquqni qo'llash to'g'riligini yuqori instansiya nazorati ostida tekshirish mexanizmidir. Taftish instansiyasi va ilgari mavjud bo'lgan nazorat instansiyasi o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha: birinchidan, tizimlilik jihatidan nazorat tartibi istisnoli bosqich hisoblangan bo'lsa, taftish bosqichi qarorlarning qonuniyligini doimiy va uch bosqichli tizimga aylantirdi. Ikkinchidan, shikoyat va protest jihatidan nazorat tartibida yuqori mansabli shaxslarning protesti hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, taftish tartibida tomonlarning shikoyat berish huquqi kengaytirilib, ishni qayta ko'rish ko'proq tomonlar tashabbusiga bog'liq etib qo'yildi. Uchinchidan, muddatlar jihatidan taftish tartibida har xil bosqichlar uchun aniq va differentsiallashtirilgan muddatlar joriy etildi. **Taftish shikoyatini berish tartibi va qo'yiladigan talablar.** Fuqarolik protsessual kodeksining 4194-moddasi qoidalariga muvafiq, taftish tartibida shikoyat (protest) berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi aniq belgilangan: ishda qatnashuvchi shaxslar va ularning vakillari, ishga jalb etilmagan, ammo huquq va majburiyatlari to'g'risidagi masala sud tomonidan hal qilingan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tegishli hollarda prokurorlar. FPKning 4196-moddasi qoidalariga ko'ra, taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan qaroriga nisbatan bir yil ichida berilishi mumkin.<sup>2</sup> Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ajrim chiqarilgunga qadar o'tib ketgan hollarda, shikoyat kassatsiya ajrimi qabul qilingan kundan boshlab uch oy ichida berilishi mumkin. Muddatni tiklash uchun shikoyat berish muddati o'tgan kundan boshlab uch oy ichida iltimos qilinishi va muddatning o'tkazib yuborilish sabablari uzrli deb topilishi shart. Taftish shikoyatiga qo'yiladigan mazmun talablari FPKning 4197-moddasi bilan belgilangan bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatilishi shart: shikoyat yuboriladigan taftish instansiyasi sudining nomi, shikoyat beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi hamda yashash joyi, ish raqami, shikoyat etilayotgan qaror qabul qilingan sana va sudning nomi, qarorning noto'g'ri ekanligi nimadan iboratligi, shikoyat beruvchining iltimosi, ilova qilingan yozma materiallar ro'yxati. Shikoyatga davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi majburiy hisoblanadi. Taftish shikoyatlari (protestlar)ni ko'rish bo'yicha sud tizimi uch bo'g'indan iborat: 1) Viloyatlarga tenglashtirilgan sudlar bo'g'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi. 2) Oliy sud bo'g'ini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasi. 3) Yakunlovchi so'nggi bo'g'in O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Prezidiumi.

Taftish tartibida ishlarni ko'rish muddatlari qonunchilikda qat'iy belgilangan: viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan shikoyat ish yuritishga qabul qilingan kundan boshlab bir oy ichida ko'rib chiqiladi; Oliy sud Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov kollegiyasi tomonidan bir oydan oshmaydigan muddatda ko'riladi; Oliy sud Prezidiumi tomonidan kelib tushgan kundan boshlab ikki oy ichida ko'rib chiqiladi. Taftish instansiyasi sudi shikoyatni ko'rish natijalari bo'yicha quyidagi vakolatlariga ega: hal qiluvchi qaror, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirish, hal qiluvchi qaror, ajrim yoki qarorni to'liq yoki bir qismini bekor qilib, yangi hal qiluvchi qaror, ajrim

<sup>2</sup> . Fuqarolik protsessual kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-3517337>

yoki qaror qabul qilish, hal qiluvchi qaror, ajrim, qarorni to'liq yoki bir qismini o'zgartirish, ishni yangiidan ko'rish uchun apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga yuborish, hal qiluvchi qaror, ajrim yoki qarorni to'liq yoki bir qismini bekor qilib, arizani ko'rmasdan qoldirish yoki ish yuritishni tugatish. Xorijiy tajriba tahlili ko'rsatadiki, O'zbekistonda joriy etilgan taftish instituti rivojlangan davlatlar, xususan Germaniya Federativ Respublikasining "Revision" modeli bilan o'xshashlik kasb etadi. Germaniyada taftish instansiyasi faqat huquqiy masalalarni (Rechtsfrage) tekshiruvchi instansiya bo'lib, quyi instansiya sudlari tomonidan aniqlangan faktlarni qaytadan tekshirmaydi, yangi dalillarni qabul qilmaydi. Bundan tashqari, Germaniyada ishlarning taftish instansiyasiga o'tishi uchun qattiq filtrasiya tizimi mavjud bo'lib, agar huquqiy tortishuv asosiy qonunchilikni rivojlantirish uchun muhim bo'lmasa, ish taftishga qabul etilmaydi. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi joriy taftish amaliyoti hali to'liq "huquqiy sud" (court of law) darajasiga o'tmagan, zira u hali ham asoslilikni baholash vakoliga ega. Bu o'z navbatida Oliy sudga bo'lgan yuklamani oshiradi va instansiyalar o'rtasidagi chegaraning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Germaniya modelining "faqat huquqni qo'llash" va "filtrasiya" elementlarini O'zbekiston qonunchiligiga to'liq joriy etish bu muammoni hal etishning samarali yo'li hisoblanadi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Fuqarolik protsessual qonunchiligiga taftish instansiyasining joriy etilishi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashning yangi va ta'sirchan bosqichi bo'lib, ushbu institut qonuniy kuchiga kirgan sud hujjatlaridagi xatolarni bartaraf etish va fuqarolarning buzilgan huquqlarini himoya qilishni qo'shimcha protsessual kafolatlar bilan ta'minlaydi. Taftish tartibida ish yuritish birinchi instansiya, apellyatsiya va kassatsiya bosqichlaridan so'ng, sud hujjatlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatlilikini yana bir bor yuqori sud instansiyasida tekshirish imkoniyatini beruvchi alohida huquqiy mexanizm sifatida shakllandi. Bu, o'z navbatida, adolatsiz sud hujjatlarining ijro etilishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Xorijiy davlatlar, xususan Germaniyaning eng samarali tajribalarini hisobga olgan holda, O'zbekistonda taftish institutini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, taftish instansiyasida dalillar va ishning haqiqiy holatlarini qayta tekshirish vakolatini cheklash taftish faqat moddiy va protsessual qonun buzilishlari bo'yicha qaralishi to'g'risidagi qat'iy qoida joriy etilishi lozim; ikkinchidan, filtrasiya institutini joriy etish taftish shikoyati faqat qonunchilikni rivojlantirish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hollarda qabul qilinishi zarur; uchinchidan, Oliy sud Plenumining taftish amaliyotiga oid izchil va tizimli ravishda rivojlantirilgan tushuntirish qarorlarini qabul qilish zaruriyati mavjud bo'lib, bu quyi sudlar tomonidan qonun normalarining bir xil va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi. Yakunlash sifatida aytish mumkinki, sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish institutini yanada takomillashtirish, yuqorida ko'rsatilgan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish adolat sifatini oshirishga, sud va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, fuqarolik protsessual huquqining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Fuqarolik protsessual kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-3517337>
3. FUQAROLIK KODEKSI 1-qism // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-111189#-150438>
4. FUQAROLIK KODEKSI 2-qism // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik

ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-180552#-196560>

5. «Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» 887-sanli ÓRN // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-6708694>

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-iyundagi «Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risidagi»gi 20-sonli qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://www.lex.uz/uz/docs/-7004127>

